OLIY TA’LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN’AT YO‘NALISHIDA ENKAUSTIKA TEXNOLOGIYASINI O‘QITISH: FAYUM PORTRETLARI ASOSIDA MUM-SMOLALI RANGTASVIR USULLARINING BADIIY VA TEXNOLOGIK TAHLILI

Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
v.b. Professori Artikov G‘ayrat Azizovich

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at yo‘nalishi talabalariga enkaustika texnologiyasini o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida qadimgi Fayum portretlari misolida mum-smolali rangtasvir texnikasining tarixiy shakllanishi, texnologik jarayonlari hamda badiiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asalari mumi, daraxt smolalari, pigmentlar va gruntlash usullarining rangtasvir sifatiga ta’siri ilmiy asosda ochib berilgan. Shuningdek, enkaustika texnologiyasining zamonaviy tasviriy san’at ta’limidagi o‘rni, talabalarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash metodikasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Enkaustika, Fayum portretlari, mum-smolali rangtasvir, tasviriy san’at ta’limi, oliy ta’lim, badiiy texnologiya, gruntlash, pigment, antik san’at, ijodiy kompetensiya.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты преподавания технологии энкаустики студентам направления изобразительного искусства в системе высшего образования. На примере фаюмских портретов анализируются историческое развитие,

технологические процессы и художественные возможности восково-смоляной живописи. Раскрывается влияние пчелиного воска, древесных смол, пигментов и методов грунтовки на качество живописи. Особое внимание уделено роли энкаустики в современном художественном образовании, её значению в развитии творческих компетенций студентов и методике применения в практических занятиях.

Клучевые слова: *Энкаустика, фаюмские портреты, восково-смоляная живопись, художественное образование, высшее образование, художественная технология, грунтовка, пигмент, античное искусство, творческие компетенции.*

Abstract

This article explores the theoretical and practical aspects of teaching encaustic technology to students in higher art education institutions. Using Fayum portraits as an example, the study analyzes the historical development, technological processes, and artistic potential of wax-resin painting techniques. The research highlights the influence of beeswax, natural resins, pigments, and grounding methods on the quality and durability of paintings. Particular attention is paid to the role of encaustic art in contemporary visual arts education, its importance in developing students' creative competencies, and methodological approaches for its application in practical training.

Key words: *Encaustic, Fayum portraits, wax-resin painting, art education, higher education, artistic technology, grounding, pigment, ancient art, creative competence.*

Mum va mum smolali rangtasvir. Enkaustika.

Enkaustika bu antik san'atidagi eng ajoyib yorqin texnik usul zaxiralaridan biri, bizlar esa ularning vorislaridan bo'lib qoldik. Bugungi kunda qadimgi usul qayta

tiklandi. Ushbu usulni qayta tiklash uchun jon kuydirganlardan Vasiliy Viniominovich Xvostenko simobli kinovarni enkaustik bo‘yoqlar bilan sinab tajriba o‘tkazayotganda uning hayoti fojiali tugadi. Vasiliy Viniominovichning enkaustik bo‘yoqlarni qayta tiklashda, texnik-texnologik jarayonini yaratilishida hissasi katta. U antik enkaustik usulning barcha jarayonini tajriba orqali izchillik bilan o‘rganib, bizlarga meros qilib tashlab ketdi, uning ruhi shod bo‘lsin. Bizlar uning tajribasiga suyangan holda ushbu usulni san’at shaydolariga yetkazishga harakat qilamiz.

Qadimda kim birinchi bo‘lib asalari mumini qizdirib asar yaratgani noma’lum.

Fayum portretlarni usuli.

Tag asoslar.

Bizlarga yetib kelgan fayum portretlarini ko‘pchiligi yog‘och taxtachalarda ishlangan.

Dastlabki portretlarda (birinchi asrda) tag asos sifatida kedr va sikamura taxtachalaridan foydalanishgan, qalinligi 1 sm.

Qattiq yog‘och katta mehnat talab qiladi, lekin shunga qaramasdan enkaustlar qattiq yog‘ochni afzal ko‘rishgan, chunki qattiq yog‘ochni yuzasi silliq taxtacha bo‘lib bo‘yoqni kam shimgan (enkaustik bo‘yoqlar qimmat turgan). Shu kabi yog‘ochlar kam nam tortadi va qurishib ketmaydi. Bundan tashqari amalda qizdirganda egilmaydi. Bu juda ham muhim, chunki qancha qattiq qizdirib, bo‘yoqlar eritilganda, shunchalik ko‘p yuzasi bilan birikma hosil bo‘lgan, yana ham chuqurroq tus olib, rangtasvir yaltirab uzoq saqlangan.

Gruntlar.

Fayum moyli usuli qoida bo‘yicha tag asosni yuzasiga grunt ikki marotaba berilgan. Birinchi grunt qoidaga asosan asalari mumi yoki ganozis shimdirilgan. Uning maqsadi yog‘ochni karroziyadan va deformatsiyadan saqlash bo‘lgan, bundan tashqari gruntlangan taxtada ishlash osonroq, chunki u bo‘yoqni shimmaydi.

Ikkinchi qatlamga asalari mumi, daraxt smolasi, moy, pigmentlardan tarkib topgan (asosan oq bo‘yoqdan) tag asosi bilan birikish kuchaygan va rangtasvirni qizdirish jarayonida bo‘yoq qatlami oqib ko‘chishdan saqlangan. Mexanik gruntlashdan tashqari, ikkinchi grunt rangtasvir funksiyasini bajargan. U rangtasvirni chuqurlashtirib vazminlik bergan va mumli bo‘yoqlarga yorug‘lik kuchi berib, fon bo‘lib xizmat qilgan.

Birinchi va ikkinchi gruntlarda asalari mumi asos bo‘lgan.

Asalari mumi (vosk) – bu modda jonzot (jonivor) o‘simlikdan kelib chiqqan, tarkibi asosan murakkab efirlardan, oliy yog‘ kislotasi va oliy bir atomli, ozroq ikki atomli spirtlardan iborat. Asalari mumi o‘z kimyoviy tarkibi jihatidan moylarga yaqin va ularning xususiyatiga ega.

Fayum portretlarida, Qadimgi Gresiyadagidek, tozalangan punich mumi (vosk) qo‘llangan.

“Punich mumini tayyorlash yo‘lini Pliniy kattasi tomonidan aniq qilib yozilgan. “Yaxshi mum- deb yozgan u, - punichniki. Punich mumi quyidagicha tayyorlanadi: sariq mum uzoq muddat ochiq havo ta’sirida bo‘ladi. Keyin dengiz tubidan olingan suv (sada) aralashmasida qaynatiladi, qoshiq bilan ozroq oq qismini sovuq suv bilan birga yana dengiz suvida qaynatiladi, keyin sovutiladi. Ushbu jarayonni uch marta takrorlab, to‘qilgan elaklarda ochiq havoda, quyoshda va oydinda quritiladi. Oxirgisi oqartiradi, quyosh esa quritadi.erimasligi uchun uni yupqa zig‘irli mato sochiq bilan yopib qo‘yiladi. Yana ham oqroq bo‘lishi uchun quyoshda oqartirilganidan keyin yana bir marta qaynatib olinadi”.

Boshqa antik avtor, Dioskurid yozma aniq ma’lumot beradi-,Punich mumi olish uchun,- deb yozadi u,- ushbu nav mum quyidagicha tayyorlanadi, natrium (soda) aralashmasi xomakisi eritilib, ya’ni oqartirilmagan sariq asalari mumi dengiz tubidan olingan toza suvni qozonga to‘ldirib solib, qizdirib eritiladi; ushbu suvni olib tashlab, yana uch marotaba yangi dengiz suvida qaynatiladi keyin sovutiladi, olingan mum bo‘laklarini chizimchaga osib keyinchalik oqartirish uchun ochiq

havoda osib qo‘yiladi, yoki quyoshli joylarga, ko‘kat ustiga qo‘yib, u erimasligi uchun sochiq bilan yopiladi”.1

Bunday aniq retseptni antik avtorlar behuda keltirmagan, Pliniy keltirgan retsept bo‘yicha tajriba o‘tkazilganda, ishlov berilmagan asalari mumi 62˚S da erisa, punich usulida ishlov berilgani 90˚ - 100˚S da eritiladi, bu grunt qizdirishga bardosh bera oladi degani. Punich mumi bo‘lagi bilan fayumlik ustalar taxtani ishqalashgan, keyin uni olovda qizdirishgan.

Har qanday daraxt yog‘ochining zichligi bir xil emas. Shuning uchun mum tag asosga bir hilda shimmaydi. Taxta yuzasidagi mum ko‘proq yiltirashi bilan aniqlanadi. Keyin taxtani ikkinchi bor mumda ishqalab surtib, to yuzasi bir hilda yiltirab chiqguncha yana olovda qizdiriladi.

Ishlov berilgan taxta yuzasi maxsus kautir asbobi bilan tekislangan va zig‘ir mato bilan ishlov berilgan. Mum izlari yo‘qolguncha ishlov berib borilgan, bu degani yog‘och qancha mumni shima olsa, shuncha shimgan, shu bilan birinchi gruntlash tugagan.

Ikkinchi grunt uchun ham tozalangan punich mumi qo‘llangan, Yumshoq va birikma hosil qilish xususiyati bilan biriktiruvchi rolini bajargan.

Smolalar grunt aralashmasiga qattiqlik va yaltirashni ta’minlagan, erish nuqtasini ko‘targan. Fayum ustalar ikkinchi gruntga damara smolasi va pinii smolasini qo‘llashgan.

Damarali smola – tez eriydigan va cho‘ziluvchan. U asrlar o‘tsa ham yorilmaydi.

Pinii smolasi – unchalik cho‘ziluvchan emas, vaqt o‘tgach, sinishga moyil, ammo yuqori erish nuqtasiga ega, shuning uchun bo‘yoqni cho‘zilishini oldini oladi. Turli tarkibli qo‘shilmalar orqali bu smolalarni grunt aralashmasiga kerakli miqdorda birikma hosil qilish va eritish qiyinlashadi.

1 Т.ВХвостенко “Энкаустика” М., 1985, ст.-50-55

Gruntni oxirgi komponenti – pigment. Qoidaga binoan uchinchi asosiy pigment grunt uchun belila qo‘llangan.

Belila gruntni zichlashtirgan, erish harorati yuqori bo‘lgan. Qo‘rg‘oshin belila qo‘shganda zich bo‘lgan. Bo‘r qo‘shilganda shaffofli chiqqan, ushbu grunt qalinroq berilgan. Gruntli aralashmani tayyorlash uchun maxsus bazaltli yoki sopol piyolacha idish tayyorlashgan. Piyolachaga bir bo‘lak punich mumini solib, keyin olovdonda qizdirilgan. Mum erigandan so‘ng, piyolachaga ma’lum miqdorda smola qo‘shilgan. Smola eriguncha boshqa olovdonda bazaltli taxtacha qizdirilgan, u bo‘yoqni qorishtirib yaxshilab ishqalash uchun xizmat qilgan.

Bazalt taxtacha qizigach, smola mum kerakli darajada erigandan so‘ng, quruq kukun sifat belila sekin- asta to‘kilgan. To‘kilgan pigment orasi chuqurlik qilib, qizigan mum, smola qo‘shilgan va smetanaday sifat darajasiga yetguncha ishqalab aralashtirilgan.

Muhimi bazaltli taxtacha o‘ta qizib ketmasligi, uni ustidagi aralashma qaynab ketmasligi kerak, qaynab ketishi natijasida mum va smola o‘zini xususiyatini yo‘qotishi mumkin, belila esa kuyib rangi o‘zgaradi.

Hozirgi kunda ushbu jarayon osonlashdi, elektr asboblar, avtoregulyatorlar paydo bo‘lib, xohlagan harorat darajasini aniq mo‘ljallab qo‘yish mumkin. Grunt aralashmasini tayyorlashda fayum ustalari maxsus asbob kurantni qo‘llashgan. Kurant uzunroq shaklga ega, tag qismi yassi bo‘lib, yaxshilab silliqlangan qattiq toshdan tayyorlangan. Ishqalab ishlov berish jarayoni uzoq bo‘lgan, chunki uning qismida biror qattiq quyuqlik qolmasligi kerak. Mumlangan sovuq taxtachani gruntlash uchun mo‘ljallangani ustiga maxsus kauter (shpatelga o‘xshash asbob) bilan issiq grunt aralashmasi berilgan, ushbu jarayon tepa qismidan pastki qismiga qarab to kengligi batamom berkitib bo‘lguncha surtilgan. Ushbu jarayon uch marta takrorlangan.

Enkaustik bo‘yoqlar.


“Enkaustik bo‘yoqlar asalari mumi, yog‘och smolasi, moy va pigmentdan tarkib topgan. Ularni gruntli aralashmaga o‘xshatib tayyorlashardi, faqat farqli

tomoni, idishga asalari mumi, daraxt smolasi qizdirilgan eritmaga kedr, yong‘oq, zig‘ir, paxta moyi qo‘shilardi.

Enkaustik bo‘yoqlarning bir-biridan farqlanishi, proporsiyasi bilan, unda tarkib topgan barcha komponentlari va ularning tarkibiga kiruvchi pigmentlar olinadi.


Mana fayum portretida ko‘proq qo‘llangan pigmentlar ro‘yxati: rux belilasi, bo‘r, suyak qorasi, gaz qurumi, qizil kinovar, pompey qizili, binafsha rang karmin, sariq surik, sariq oxra, qizil oxra, to‘q oxra, efest sarig‘i, qizg‘ish jigarrang mumya, sepiya (jigarrang), terra de siena (jigarrang), lyapis lazurit, misr ko‘ki, sun’iy yashil (mis zangi)”.2

Ushbu pigmentlar nafaqat alohida qo‘llanilgan va yana bir bo‘yoq aralashma ichida ham belila bilan turli proporsiyalarda tayyorlangan. Shuning uchun enkaustik ranglarning turi ko‘p va boy bo‘lgan. Qazilma o‘tqazganda rim rassomlari qabridan Sen-Medar-de-Pre va Sen-Gyu-bereda o‘sha ranglar miqdori topilgan.




a) enkaustik lok (ganozis) uchun idish, g) kauteriy, b,*c*) tosh dastalar, *d*) mo‘yqalamdon, *e*) enkaustik bo‘yoqlar.

2 Т.В.Хвостенко “Энкаустика” М., 1985, ст.-55



Sen-Medar-de Pre qabridan topilgan quti va asboblar.




Qadimgi enkaust qabri. Sen-Medar-de Pre da.



Tosh qozon qadimgi enkaust uchun: asalari mumi, smola, enkaustik lok, pigmentlarni qizdirib tayyorlash uchun mo‘ljallangan.



Enkaustik bo‘yoqda ishlangan suratlar.



Zamonaviy enkaustik asboblar